

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.Asatulloeva

Professional so'zlar ishtirok etgan maqol va frazeologizmlarning pragmatik tahliliga doir 5

R.A.Ortiqov

Ingliz mifologiyasini talabalarga o'qitishning zamonaviy asoslari 10

Q.V.Yo'ldor

O'zbek va qozoq xalq maqollarida kvantitativlik 14

A.G.Sabirdinov

Mirtemir she'rlarining milliy jozibasi 19

D.G'.Gafurova

Shamol-sarlavhali asarlarda inson va jamiyat tasviri 22

TILSHUNOSLIK

M.T.Abdupattoev

Muallif idiosilining lingvopoetik xususiyatlari 27

H.X.Алиева

Актуальность изучения диалектной лексики английского языка 32

H.X.Алиева

Интеграция традиционных и современных методов в исследовании лексико-семантических особенностей диалектов английского языка 35

H.X.Алиева

Региональное разнообразие английского языка и диалектное выравнивание в современной англии 41

L.A.Abdullayeva

Abbreviatsiya muloqot jarayonida til birliklarini tejash vositasi sifatida 46

M.R.Allamberganova

Kultegin yozma yodgorligida leksik takrorlarning ishlatilishi 51

U.M.Askarova

Birikma-kiritmalar va gap kiritmalar (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) 56

A.A.Qosimov

Metaphorical dimensions: exploring the cognitive and cultural foundations of figurative language 61

M.E.Qobilov

Surxondaryo viloyati Qipchoq shevasi antroponimikasida enantiosemiya 69

G.X.Ismoilova

O'zbek va ingliz tillarida "farsihta/angel" va "shayton/devil" leksemalari ishtirok etgan maqollarining tahlili 73

U.M.Askarova

Avtomatik tahrir dasturlarining savodxonlikni rivojlantirishdagi o'rni 78

J.A.Akhrorova

Metonymy and its relation with discourse 81

Sh.U.Nosirova

Ingliz huquqiy matnlari tili leksik-semantik va grammatik xususiyatlarining lingvokulturologik jihatdan tahlili 84

Sh.U.Nosirova

Ingliz kasbiy muloqotida pragmatik vositalarning o'rni 89

U.M.Askarova, D.X.Xolbekova

Matn tuzilishida tinish belgilarining o'rni va vazifalari 93

A.R.Kosimov

So'zlarning shaxsga hissiy ta'siri xususiyatlari 97

Г.Н.Давлятова, Х.Б.Хотамова

Идиоматические выражения в свете лингвокультурологии 101

З.С.Аманова

Анализ культурно-исторических смыслов символов и знаков в современном информационном пространстве 105



UO'K: 811.512.133'373:091

KULTEGIN YOZMA YODGORLIGIDA LEKSIK TAKRORLARNING ISHLA TILISHI

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛЕКСИЧЕСКОГО ПОВТОРА В ПИСЬМЕННОМ ПАМЯТНИКЕ КУЛТЕГИНА

THE USE OF LEXICAL REPETITION IN THE WRITTEN MONUMENT OF KULTEGIN

Allamberganova Muqaddas Ruslanovna 
Qoraqalpog' davlat universiteti dotsenti, f.f.f.d. PhD

Annotatsiya

Maqolada qadimgi yozma yodgorliklar, xususan, Kultegin bitiktoshida qo'llanilgan leksik takrorlar haqida so'z boradi. Nasrdagi sa'j, parallel sintaktik konstruksiyalar bo'yicha misollar tahlil qilinadi. Adabiyot xalqning ma'naviy yodgorligi sifatida qadimdan og'zaki ijod shaklida rivojlanib kelgan. Ayniqsa, epik janrdagi asarlar, dostonlar va afsonalar xalq tafakkuri, urf-odatini hamda tarixiy hayotining badiiy ifodasidir. Maqolada qadimgi davrlarda yaratilgan asarlar misolida o'zbek xalqining dunyoqarashi, axloqiy-me'yoriy qarashlari va badiiy didi yoritiladi. Ushbu tadqiqot xalq og'zaki ijodi orqali milliy ruhiyat va tarixni anglash imkonini beradi. Bitiklarda keltirilgan leksik takrorlar orqali o'sha davr tili, grammatik holati va xalqning badiiy tushunchalarini anglash mumkin.

Аннотация

В статье рассматриваются лексические повторы, используемые в древних письменных памятниках, в частности, в Культегинской надписи. Анализируются примеры параллельных синтаксических конструкций в эпическом тексте. Литература, как духовный памятник народа, издавна развивалась в форме устного творчества. В частности, произведения эпического жанра, эпосы и сказания являются художественным выражением мышления, традиций и исторической жизни народа. Статья проливает свет на мировоззрение, морально-нормативные взгляды и художественный вкус узбекского народа на примере произведений, созданных в древности. Данное исследование позволяет понять национальную психику и историю через народное устное творчество. Через лексические повторы, представленные в надписях, можно понять язык того времени, его грамматическую систему и художественные представления народа.

Abstract

The article examines the use of lexical repetition found in ancient inscriptions, particularly in the Kultegin inscription. Examples of parallel syntactic constructions in the epic text are analyzed. Literature, as the spiritual heritage of a nation, has historically evolved through oral creativity. In particular, works of the epic genre, such as epics and legends, serve as artistic expressions of people's thinking, traditions, and historical life. The article highlights the worldview, moral and ethical values, and aesthetic taste of the Uzbek people based on works created in ancient times. This study provides insight into national mentality and history through folk oral creativity. The lexical repetitions found in the inscriptions reveal the linguistic system, grammatical structure, and artistic worldview of that period.

Kalit so'zlar: Kultegin bitiktoshi, leksik takror, sintaktik parallelizm, ritm hosil qiluvchi vositalar, monologik nutq, parallel konstruksiya, qadimgi yozma obidalar, grammatik qolip, morfologik struktura, sintaktik qurilish, so'z tartibi.

Ключевые слова: Культегинская надпись, лексический повтор, синтаксический параллелизм, ритмообразующие приемы, монологическая речь, параллельная конструкция, древние письменные памятники, грамматическая модель, морфологическая структура, синтаксическая конструкция, порядок слов.

Key words: Kultegin inscription, lexical repetition, syntactic parallelism, rhythm-forming devices, monologic speech, parallel construction, ancient written monuments, grammatical pattern, morphological structure, syntactic construction, word order.

KIRISH

O'zbek xalqining boy ma'naviy merosi, avvalo, uning qadimiy og'zaki va yozma adabiyotida namoyon bo'ladi. Tarixiy manbalarga tayanilsa, o'zbek adabiyotining ildizlari miloddan avvalgi davrlargacha borib taqaladi. Qadimgi turkiy yozuvlar, dostonlar, afsonalar va toponimik hikoyatlar xalqning tafakkuri, urf-odatlari, diniy e'tiqodlari hamda tarixiy hayotini aks ettirgan bebaho yodgorliklardir. Ushbu adabiy manbalar o'zbek adabiyotining shakllanishida, badiiy tafakkurining o'sishida, xalqning tarixiy xotirasi va madaniyati rivojida muhim o'rin tutadi. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar xalq og'zaki ijodi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular xalq hayotining aks-sadosi,

tarixiy xotirasi va madaniy tafakkurining mevasidir. Bugungi kunda bu yodgorliklarni ilmiy asosda o'rganish, ularning adabiy, tarixiy va falsafiy mohiyatini ochib berish — milliy adabiyotimizning tub ildizlarini, shakllanish bosqichlarini chuqurroq anglashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Yodnomadagi ayrim konstruksiyalar ekspressivlikni shunday namoyon etadiki, ulardagi ritmik guruhlanish faqat grammatik shakllarning takrorlanishi bilan cheklanmay, leksik qaytaruv orqali ham amalga oshadi. Bu esa ritmik-sintaktik parallelizmni yuzaga keltiradi. Yodnomadagi ayrim gap bo'laklarining bir tizimli doirada aynan qayta takrorlanishi yoki variant shakllarida uchrashi qadimgi turkiy xalqlarning badiiy tafakkur doiralarini ko'rsatib, yodnomaning kompozitsiyasi va uslubiga tegishli hodisadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qadimgi adabiy yodgorliklarning yaratilgan davri, mazmuni va badiiy xususiyatlari o'rganildi. Asosiy tahlillar qadimgi yozma yodgorliklar, ya'ni O'rxun-Enasoy obidalarini matniga tayangan holda olib borildi. Shuningdek, nazariy jihatdan 2009-yili bosmadan chiqqan, Nasimxon Rahmonov va Qosimjon Sodiqovning "O'zbek tili tarixi", 2010-yili nashrdan chiqqan Qosimjon Sodiqov va Qudratilla Omonovning "O'zbek tilining yozma uslublari tarixidan" nomli asari tanlandi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, qiyoslash, matn tahlili, sinxron va diaxron tahlil singari usullardan foydalanildi.

Qadimgi yozma va og'zaki adabiyot namunalari o'zaro taqqoslab, ularning o'zbek adabiyotidagi o'rni aniqlab berildi. Yodnomalardagi ritm hosil qiluvchi badiiy vositalar o'zaro o'zgacha bog'liqlikda bo'ladi. Parallel sintaktik konstruksiyalarning badiiy vositalari logik va ritmik urg'uga ega bo'lib, ma'lum bir narsani, voqea yoki hodisani alohida ta'kidlaydi. Yodnomadagi parallelizmning o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, u narsa yoki hodisalarni bir-biriga qiyoslash orqali yuzaga keladi. Solishtirish va qiyoslash yodnomalardagi kam uchraydigan psixologik parallelizmlar uchun ham asosiy xususiyat sanaladi. Ushbu parallelizm tabiiy hodisalar, tabiat tasviri va inson xatti-harakatlari bir-biriga qiyoslanganda ayniqsa yaqqol yuz beradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbek xalqining adabiy merosi milliy ruhiyatining mustahkam poydevori bo'lib, bu meros xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati va dunyoqarashini ifodalaydi. O'zbek adabiyotining ildizlari miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi, va uning dastlabki yodgorliklari xalq og'zaki ijodi orqali shakllanib, keyinchalik yozma adabiyotga aylangan. Ushbu yozma yodgorliklar xalqning urf-odati, qadriyatlari va tarixiy kechinmalarini o'zida aks ettirgan bebaho xazinalardir. Bitiktoshdagi parallelizmning har bir ritmik qismi bir xil shaklda tuzilgan bo'lib, batafsil tasvirlovchi tabiatga ega. Parallelizmning vujudga kelish qonuniyatlari shundan dalolat beradiki, unda xalq eposlariga xos vositalarning ishlatilishi sababli ritmikasida she'rga xos ritmik elementlarni ko'rish mumkin. A.M. Shcherbakning quyidagi fikri, garchi nasrdagi takror haqida bo'lsa-da, uning nutqdagi estetik vazifasi va yodnomalarda takrorning o'ziga xos ifodalanganligini belgilashda muhim ahamiyatga ega: *nasrda takrorning estetik roli avvalo to'liq so'zlarning qayta tiklanishiga asoslangan bo'lib, bu holda so'zning tashqi shakli va ma'nosi teng ahamiyatga ega bo'lishi nazarda tutilgan*. [4. 57]

Yodnomalardagi parallelizmni shakllantirish yozma adabiyotga xos xususiyat emas, balki folklor asarlarining ta'siri natijasidir. Bitiktoshlardagi leksik takror ayrim konstruksiyalar va sintaktik bo'laklar doirasida chegaralanganligi sababli, u hali umumiy kompozitsiyada yetarli darajada rol o'ynay olmas edi. Ritmik-sintaktik parallelizmning yodnomada boshidan oxirigacha uchramasligi ham takrorning asar kompozitsiyasidagi ahamiyatiga bog'liqdir. Magik xususiyatlar takrorning parallelizmlar hosil qilishida ham kuzatilishi mumkin. Parallelizmlardagi leksik takrorga ma'lum ma'nolar, jumladan, magik ma'no yuklatiladi. Bu vositalarning ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgani va diqqatni jalb qilganligi sababli magik xususiyatlar ularga singdirilgan. Bu holat takrorlanayotgan so'zlarga badiiy ruh bag'ishlashga olib keladi.

O'zbek xalq dostonlaridagi ritmik nasr namunalariga e'tibor qaratilganda, ularning yodnoma bilan o'xshash jihatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Yodnomadan keltirilgan quyidagi parchani tahlil qilib ko'ramiz: *"Yiraq erser yablaq a'g'y berur, yag'uq erser edgu a'g'y berur tap ancha bashgurur ermish [Kultegin 7]"*¹. Mazmun shundan iboratki, uzoq bo'lsa yomon, yaqin bo'lsa yaxshi deb baho berish odati mavjud. Bu jarayon ma'lum bir uslubda takror va ritmik bo'laklarga asoslanadi. Shu

¹ G¹. Abdurahmonov. Qadimgi turkiy til. T-1982y. 270 bet. Mazkur asardan olingan matnlar. To'rtburchak qavs, matnning nechanchi satri ekanligini bildiradi.

TILSHUNOSLIK

bilan birga, mazkur parchaning ritmiga asoslangan bo'limlar yozma adabiyotning o'ziga xos jihatlarini ham ochib beradi. Yodnomada har bir ritmik bo'lak alohida ahamiyat kasb etib, unga yakuniy shakl berish yozma an'anaga xos xarakterni ifodalaydi. Takror esa nafaqat ritmni shakllantiradi, balki so'zlarning ideallashtirilishi va ularga ilohiy kuch sifatida e'tirof ko'rsatish g'oyasini ham o'z ichiga oladi.

E.M. Meletinskiy takroni og'zaki ijodning eng asosiy xususiyati sifatida ko'rib chiqqanida, uning badiiy-estetik vazifasi va so'zning ilohiy kuchiga ishonch tushunchalariga ham alohida urg'u bergan edi.

Leksik takror dialogik va monologik nutqdagi parallelizmni shakllantirishda, shuningdek, parallelizm orqali tasviriylik va ruhiy holatni ifodalash nuqtayi nazaridan o'ziga xos jihatlarni namoyon qiladi. Bu xususiyat yodnomalarda yanada kuchayib, qahramonning nutqi yordamida uning xarakter qirralari chuqurroq ochilib boradi. Yodnomalarda parallel konstruksiyalarning o'ziga xos tomoni shundaki, ayrim hollarda mantiqiy rivojlanishga xizmat qiluvchi ikkala parallel konstruksiyaning tashqi formal qirralari mazmunan mos kelmaydi va bu holatda mantiq birinchi o'ringa chiqadi. Biroq folklorda bu holatga zid manzaralar ham uchrab turadi. "Tengri yarlyqaduqyn uchun, ozum qutim bær uchun qağan olurtum [Kultegin 9]. Mazmuni: Tangri yorlaqagani uchun, iste'dodim, baxtim bor uchun xoqon bo'ldim.

Ushbu konstruksiyada ohangdoshlikka katta e'tibor qaratilmaydi, balki mantiqiy taraqqiyot formal jihatga nisbatan ustun ahamiyat kasb etadi. Takrorlash fikrni ajratib ko'rsatish yoki uni ta'kidlash maqsadini bajarmaydi. Shunday qilib, ritmik va semantik vazifalar bir-biriga chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Mazkur qurilmada esa buning aksi kuzatiladi. Parallelizmida ichki mantiqiy rivojlanish bilan bir qatorda, parallel tuzilmalarni o'z ichiga oluvchi tashqi jihatlar – tashqi ko'rinish va formal elementlar bir-biri bilan to'liq muvofiqlikda bo'ladi: *bəgləri bodunı tuzsiz uçun, tabğach bodun tēbligin, ko'rlug uçun, armaqchısyn uçun, inili açılı kınsturtukun uçun, bēgli bodunlığ yonışurtuqun uçun...* [Kultegin 6]. Mazmuni: beklari, xalqi insofsiz bo'lgani uchun, Tabga'ch xalqi xylakor bo'lgani uchun, to'ymas bo'lganligi uchun, firebgari (bor) uchun og'a va inini (bir-biriga) qayragani uchun, begi va xalqini chaqqani uchun turk xalqi ushlab turgan xalqini qo'ldan chiqarib yuborgan. Mazkur konstruksiyalarda boshqa badiiy vositalarning, jumladan, sa'j va alliteratsiya kabi unsurlarining mavjudligi ritmik guruhlarining ohangdoshligini ta'minlash orqali mazmunni yaxlit holatda yetkazishga imkon yaratadi. Parallel tuzilmalarda takror elementlarining hissiy ta'sir kuchi esa ularning joylashuvi tartibiga bevosita bog'liq bo'ladi. Agar takroriy unsurlar ritmik segmentlarning boshlanishida yoki yakunida bir xil tartibda takrorlanib kelsa, bu holat ritmiklikni vujudga keltirib, tinglovchida kuchli his-tuyg'ular uyg'onishiga xizmat qiladi. Aks holda, takroriy so'zlarning sintaktik konstruksiyada belgilangan tartibga rioya qilmagan joylashuvi esa mazkur effektning susayishiga olib keladi: *Turuk bēglar turk atyn ıtı, tabğachyğ bēglər, tabğaç atyn tutypın, tabğaç qağanqa kōrmuş* [Kultegin 7]. Mazmuni: turk beklari turkcha otini tashlab, tabg'achli beklarning tabg'achcha otini qabul qilib...

Bitiktoshdagi ritmik-sintaktik parallel tuzilmalarning ko'pligi tovush uyg'unligi va parallellikning mazmuniy ta'sirini sezilarli darajada kuchaytiradi. Bu jarayonda bir-biri bilan uzviy bog'langan obrazlar tizimi ritmik guruhlar orasida mustahkam aloqani ta'minlaydi. Ushbu holat psixologik parallelizmning ritmik-sintaktik parallelizm shakliga o'tishi ehtimolini tasdiqlaydi. *ədgu bilgə kışig, ədgu alp kışig yorıtmaz ərmis, bir kisi yangılsar, oğuşı bodunı, abı əsukinkə tēgi kydmyz ərmış* [Kultegin 6]. Yaxshi va dono kishini, yaxshi bahodir kishini yo'latmas ekan, biror kishi adashsa, urug'i, xalqi uyi yopinchig'igacha qo'ymas ekan.

Bunday dalillar yodnomada kamdan-kam uchraydi, ammo ular muhim ahamiyat kasb etadi. Yodnomadagi parallelizm asosan leksik takror tufayli yuzaga kelgan bo'lib, bu xalq og'zaki ijodidagi leksik takroning xususiyatlarini ko'rsatadi. Shunga qaramay, ushbu tamoyil ayrim jihatlari bilan folklorda uchraydigan o'xshash hodisalardan farq qiladi, chunki u yozma va og'zaki adabiyot poetikasining chegarasini belgilaydigan muhim element sifatida namoyon bo'ladi. Yozma yodgorliklardagi takrorlarning asosiy vazifasi mazmunning qayta ifodalashiga asoslangan bo'lib, har bir parallel sintaktik birlik orasida ichki mantiqiy bog'liqlik mavjud.[3.18]

She'riy va nasriy asarlarda, xususan, yodnomalarda parallelizmni yuzaga keltiruvchi leksik takror uslubga oid hodisa hisoblanib, bu sintaktik konstruksiyalarning ritmik bo'laklarga ajralishini ta'minlaydi. Turkologlar orasida ritmik takroni sintaktik parallelizm bilan bog'lash va qobiliyatini

qadimgi she'ning asosiy xususiyatlaridan biri deb hisoblash keng tarqalgan yondashuvdir. Bu nazariya, albatta, qadimgi she'r uchun mos va asosli hisoblanadi. Takrorning epik xalq she'riyatida qofiya vazifasini bajarishi va ritmik-sintaksik parallelizmning asosiga aylanishi aniq bir haqiqatdir. Bu holat xalq dostonlaridagi she'riy parchalarda ham yaqqol kuzatiladi. Biroq, xalq og'zaki ijodi namunalaridagi takror bilan yodnomalardagi takrorning qofiya jihatidagi farqlari bor, ular bir-biriga to'la mos emas. Asosiy tafovut parallel qurilmalardagi bo'g'inlar soniga bog'liq. Xalq she'rlari va qo'shiqlarida takrorning har qanday so'zlar yoki grammatik shakllar ko'rinishida kelishi, asosan, mantiqiy yuk tashimaydi; uning vazifasi ohang va ritmni yaratishga qaratilgan. Yodnomalarda esa mustaqil parallel shakllar o'ziga xos tarzda aks etib, xalq qo'shiqlarining to'rtlik shaklida standartlashgan tuzilmasidan farq qiladi.

Yodnomalarda ritmik guruhlardagi bo'g'inlar sonining teng bo'lmasligi uni she'riy shakldan ajratib turuvchi muhim jihatlardan biridir. Har bir ritmik bo'lakni mazmunan birlashtiruvchi element esa leksik takrorlardir. Leksik takrorlarning bitiktoshlarda tutgan o'rni fonetik va morfologik takrorlardan farqlanib, ularning yordamida ayrim joylarda vaznli nasr yuzaga kelgan. Bu esa yodnomalardagi ko'tarinki uslubni yanada ta'sirchan va kuchliroq qilib namoyon etishga xizmat qiladi. [1.47.] *Bodunuŭ igidəyin təyin, yirǵaru oǵuz bodun tapa, ilgəru Qıtany Tataby bodun tapa, birǵeru tabǵač tapa uluǵ su əki yəgirmi...* (Kultegin, 28). Mazmuni: Xalqni tarbiyat qilayin deb, shimolga o'g'uz xalqi tomonga, Sharqqa Qitan, janubga Tabg'ach tomonga katta lashkar o'n ikki... Tatabi xalqi tomonga Ushbu misolda nafaqat saj, balki leksik va grammatik takrorlarning ham qo'llanganligini kuzatishimiz mumkin.

Bitiklardagi leksik takrorlar matnning badiiy, emotsional va ritmik tuzilishini shakllantirish bilan birga, sintaktik qurilishda ham alohida funksiyalarni bajaradi. Yozma yodgorliklarda leksik takror barcha so'z turkumlari orqali ifodalangan. Biroq, mazkur takrorlarning parallelizmni hosil qilishda qaysi so'z turkumlari orqali ifodalanishi unchalik muhim bo'lmasa-da, ularning gap strukturasidagi vazifasi, ya'ni strukturaviy tashkil etilishdagi roli jihatidan farqlanishi ahamiyatlidir. Ayniqsa, yodnomalarda fe'l kesimlarining takrorlanishi nisbatan ko'p uchraydi. Bu takrorlanishning yuzaga kelishi bir qancha sabablar bilan izohlanadi.

Avvalo, fe'l kesim predikativlikni ta'minlaydi va mazmun hamda shakl jihatidan gapda bir xillikni yuzaga chiqaradi. Shu bilan birga, u ritmik sado hosil qilib, sintaktik parallelizm uchun asos yaratadi. Bu shakliy bir xillikning mohiyati shundaki, har bir sintaktik bo'lakdagi komponentlar grammatik shakli bilan bir xilda shakllangan bo'ladi. Fe'l kesimlarning takrorlanishi esa she'riyatda refren vazifasini bajarib, epik bayonning shakllanishiga hissa qo'shadi. Yuqorida qayd etilganidek, yodnomalardagi shunday leksik takrorlar kelgusida she'riy tizimning rivojlanishi uchun tamal toshi bo'lib xizmat qilgan. Quyidagi misolda shunday epik tasvirlarni ko'rish mumkin: *Biriya tabǵač bodun yag'by ərmish, yiraya baz qaǵan toquz oǵuz bodun yag'by ərmish, qırqyız, qurıqan, otuz tatar, qıtany, tataby qop yag'by ərmish* [Kultegin, 14]. Mazmuni: Janubda Tabg'ach xalqi dushman ekan, shimolda baz qag'an, Toquz o'g'uz xalqi dushman ekan, Qirg'iz, Qurıqan, O'ttiz tatar, Qitan, Tatabi butunlay dushman ekan. [3.78] Mazkur qurilmalardagi leksik takrorning vazifasi konstruksiyani ritmik bo'lakka bo'lish bilan bir vaqtda, ularni bir-biriga bog'laydi. Fe'l kesimlarning bu turi takroriy bo'lishi sababli keng yoritilgan fragmentlarga ega bo'lib, o'ziga xos diqqat markazini shakllantiradi va voqealarni tasvirlashda boshqa so'z turkumlariga nisbatan sezilarli darajada kengroq funksional vazifani bajaradi. Yodnomalardagi parallelizm asosida yaratilgan konstruksiyalarda muayyan umumiy qonuniyat kuzatiladi. Xususan, turkiy xalqlar yashagan yoki ular tomonidan egallangan hududlar haqida so'z yuritilganda, voqealarning sodir bo'lgan joyi batafsil tasvirlanadi, bu esa ko'pincha tabiiy manzaralarni bayon etishga moyillikni keltirib chiqaradi. Ushbu voqealarning urg'uli ifodalanishi, ayniqsa qahramonning ruhiy holatini tabiat tasviri bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan intilish yozma adabiyot an'analarda o'sha davr yodnomalaridan boshlangan jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA

Leksik takror, grammatik shakllarning qaytalanishi va saj tufayli parallelizmning paydo bo'lishi yodnomadagi aksariyat konstruksiyalarga xos xususiyatdir. *Ilgəru Shantung yazıqqa tēgi sūladim, Taluyqa kichik tēgmadim, birǵaru toquz arsanka tēgi sūladim, Taluyqa kichig tēgmadim, qurıg'aru yinchu oǵuz kēcha Təmir qapıg'qa tēgi sūladim, yirg'aru yar Bayırqu yiringa tēgi sūladim.* [Kultegin 3-4]. Mazmuni: Shimolga Shantung cho'ligacha lashkar tortdim, dengizga biroz

TILSHUNOSLIK

yetmadim. Janubga Toquz arsangacha yetmadim, lashkar tortdim, Tuputga biroz yetmadim, G'arbga inju o'guzni kechib temir qapiqqacha lashkar tortdim. Shimolga yer Bayirqu yerigacha lashkar tortdim.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Qadimgi adabiy yodgorliklarni o'rganish - bu nafaqat o'tmish haqida bilim olish, balki xalqning ruhiyatini va ma'naviyati bilan tanishish, uning bugungi taraqqiyotiga xizmat qilishdir. Ushbu yodgorliklar xalqning ma'naviy merosini saqlab qolish va uni kelajak avlodlarga yetkazish uchun ajralmas manba hisoblanadi. Bu asarlar orqali o'zbek xalqining qadimiy davlatchiligi, axloqiy ideallari, til boyligi va hayot falsafasini o'rganish mumkin. Ularning har biri bugungi avlodni o'z tarixiga hurmat bilan qarashga, milliy merosni asrab-avaylashga, uni chuqur o'rganib, kelajak uchun saqlab qolishga chorlaydi. Shu sababli, qadimgi adabiy yodgorliklarni chuqur o'rganish va ularni ilmiy asosda tadqiq qilish nafaqat tarixiy zarurat, balki bugungi ma'naviy barkamollikning ham muhim omilidir

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ (Масъул муҳаррир Т. Мирзаев). Т., «Фан», 1978. 152 б.
2. Rahmonov N, Sodiqov Q, O'zbek tili tarixi - Toshkent-2009 - 222 b.
3. Abdurahmonov G'. Qadimgi turkiy til, T-1982, B-67.
4. Щербак А.М. Грамматический очерк языка тюркских текстов X-XIII вв. из Восточного Туркестана, Изд-во Акад. наук СССР. Ленингр. отд-ние, 1961, 280-стр.
5. Щербак А.М. "Тюркская руника" СПб, Наука-2001, 152 стр.
6. Ядринцев Н.М. Древние памятники и письма в Сибири. - Санкт-Петербург, 1885, -С. 456-476.
7. Қажомов А. Қадимият обидалари. Тошкент-Ғ. Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972, 156 бет.